

«Dehqonobod kaliy zavodi» AJ
Kuzatuv kengashining
2023-yil 23-fevraldagi 4/13-son qaroriga

5 - ILOVA

**«DEHQONOBOD KALIY ZAVODI» AJning
ijroiya organi rahbarligiga tanlov o'tkazish
TARTIBI**

(Yangi tahrirda)

MUNDARIJA

- I. Umumiy qoidalar
- II. Tanlovga tayyorgarlik
- III. Tanlovni o'tkazish
- IV. Yakunlovchi qoidalar

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur «DEHQONOBOD KALIY ZAVODI» AJning ijroiya organi rahbarligiga tanlov o'tkazish» Tartibi (keyingi o'rinlarda Tartib deb ataladi) «Aksiyaadorlik jamiyatlari va aksiyaadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (keyingi o'rinlarda Qonun deb ataladi), Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalari (Aksiyaadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha komissiya majlisining 2015-yil 31-dekabrda, 9-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan), «DEHQONOBOD KALIY ZAVODI» AJning Ustavi (keyingi o'rinlarda Jamiyat deb ataladi) va Jamiyatning boshqa ichki hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Tartib Jamiyatning Boshqaruv a'zolari lavozimiga nomzodlar tanlovini o'tkazish tartibini belgilaydi.

Tanlov o'tkazishning asosiy prinsiplari:

ochiqlik - tanlov boshlanishi, uning o'tkazilishi, saralash va saralangan nomzodlarning mezonlari to'g'risidagi ma'lumotlarni chop etish orqali ta'minlanadi;

doimiylik - Qonunga muvofiq ijroiya organi bo'yicha takliflarni yo'llash uchun belgilangan davrda tanlovni o'tkazish orqali ta'minlanadi;

tortishuv - mazkur Tartibda belgilangan mezonlarga muvofiq nomzodlarning malakaviy va professional sifatlarini baholash orqali ta'minlanadi.

3. Boshqaruv a'zolari lavozimiga tanlov (keyingi o'rinlarda tanlov deb ataladi) Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan o'tkaziladi.

4. Tanlov nomzodlar bo'yicha kelib tushgan takliflar asosida o'tkaziladi.

5. Iqtisod, yuridik va boshqa sohalardagi, respublikaning boshqa vazirlik va idoralarning malakaviy xodimlari, shuningdek boshqa shaxslar, shu jumladan tegishli sohada zarur malaka va ish tajribasiga ega xorijiy menejerlar nomzod (keyingi o'rinlarda nomzodlar deb ataladi) bo'lishlari mumkin.

6. Nomzodlar bo'yicha takliflar talabgor tomonidan mustaqil ravishda, qonun hujjatlariga muvofiq Jamiyatning rahbar lavozimlariga nomzodlar bo'yicha takliflarni kiritish vakolatiga ega boshqa vazirlik, idora (vazirlik va idoralarning yoki xo'jalik boshqaruv organi nomi), aksiyaadorlar va boshqa shaxslar (keyingi o'rinlarda tashabbuskor deb ataladi) tomonidan kiritiladi.

7. Tanlov muddati, agar Jamiyat Ustavida boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa, Qonunga muvofiq Jamiyatning rahbar lavozimlariga nomzodlar bo'yicha takliflarni yo'llash uchun ajratilgan muddatni hisobga olishi shart.

8. Jamiyat Kuzatuv kengashi tanlovni o'tkazish uchun Kuzatuv kengashi, Taftish komissiyasi a'zolari hamda tegishli vazirlik va idoralarning vakillaridan tarkib topgan tanlov komissiyasini tashkil qiladi.

9. Tanlov komissiyasining shaxsiy tarkibi Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

10. Tanlov komissiyasining qarorlari kengashlarda qabul qilinadi va bayonmoma bilan rasmiylashtiriladi.

11. Tanlov komissiyasining ishchi organi vazifalari Jamiyatning kadrilar bilan ishlaydigan tarkibiy bo'linmasiga yuklatiladi.

12. Jamiyatning korporativ saytida tanlov bo'yicha quyidagi axborotlar joylashtiriladi:

- Mazkur Tartibning va uning hovalarining matni;

- tanlov komissiyasi tomonidan tasdiqlangan tanlov e'lonining matni;

- tanlovga ta'luqli axborot-tushuntiruv materiallari.

13. Jamiyat tanlov to'g'risidagi axborotni ommaviy axborot vositalarida, Jamiyatning korporativ veb saytida hamda www.openinfo.uz saytida chop etadi.

II. TANLOVGA TAYYORGARLIK

14. Tashabbuskorlar tanlov e'lon qilganidan so'ng 10 kun ichida (agar e'londa boshqa muddat belgilangan bo'lmasa) nomzodlar to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etadilar.

15. Quyidagi shaxslar nomzod bo'la olmaydilar:

- tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lmagan;
- Injener, muxandis, iqtisod, yuridik va boshqa sohaslarda rahbar lavozimlarda kamida 3 yillik ish tajriga ega bo'lmagan;

- yuridik shaxsning yakka ijroiya organi vazifasini bajargan, kollegial tartibdagi ijroiya organi tarkibiga kirgan yoki yuridik shaxsning ta'sischi bo'lgan davrda, ularning aybi bilan litsenziya talablari va shartlarini buzganlik uchun tegishli faoliyat turini amalga oshirish uchun takdim etilgan litsenziyaning amal qilishi to'xtatilsa, agar to'xtatilgan vaqtdan 3 yillik muddat o'tmagan bo'lsa;

- iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlari yoki boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlari uchun sudlanganligi tugallanmagan shaxslar;

- yuridik shaxs bankrot deb topilgan vaqtda yakka ijroiya organi vazifasini bajargan yoki yuridik shaxsning kollegial ijroiya organi tarkibiga kirgan shaxslar, bankrot deb topilgan vaqtdan 2 yil o'tmagan bo'lsa;

- Kuzatuv kengashining boshqa a'zolari yoki Jamiyatning rahbari bilan qarindoshlik munosabatlariga ega shaxslar.

16. Tashabbuskorlar nomzodlar bo'yicha Jamiyatga taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchligini, muhimligini va haqqoniyligini ta'minlaydi.

III. TANLOVNI O'TKAZISH

17. Nomzodlar to'g'risidagi belgilangan muddatda taqdim etilgan ma'lumotlar mazkur Tartibning 1-son ilovasida sanab o'tilgan har bir mezon bo'yicha nomzodlarga beriladigan ballar (umumiy 100 ballgacha) asosida umumlashtiriladi.

18. Jamiyat boshqaruv raisi a'zolari lavozimiga eng yaxshi nomzodni tanlash mazkur Tartibning ilovalarida belgilangan mezonlarga muvofiq nomzodlarga berilgan eng ko'p jami ballar bo'yicha amalga oshiriladi.

19. Agar to'plangan ballar teng bo'lsa, Komissiya tomonidan saylov o'tkaziladi.

20. Tanlov komissiyasining saylov yakunlari bo'yicha ikki va undan ortiq nomzodlarda teng miqdorda ovozlari bo'lsa, tanlov komissiyasining raisi hal qiluvchi qarorni qabul qiladi.

21. Nomzodlar bo'yicha takliflar mavjud bo'lmaganda, nomzodlar Jamiyat, O'zbekiston Respublikasi tegishli vazirlik va idoralari yoki vazirlik tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar xodimlari ichidan tanlov komissiyasi tomonidan belgilanadi.

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yoki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 31 martdagi PQ-2327-son Qarori bilan tashkil etilgan Aksiyaadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha komissiyasining qarori asosida rahbar lavozimlarga tayinlanadigan shaxslar bo'yicha tanlov o'tkazilmasdan qaror qabul qilinadi.

23. Kuzatuv kengashi rahbar lavozimlarga (nomenklaturaga kiritilgan lavozimlar bo'yicha) eng yaxshi nomzodlar bo'yicha takliflarning kelishuvini lavozim nomenklaturasida belgilangan tartibda o'tkazadi.

24. Kuzatuv kengashi rahbar lavozimlarga muvofiq nomzodlarni aksiyaadorlarning umumiy yig'ilishiga qonun hujjatlarida, shuningdek Jamiyat Ustavi va ichki hujjatlarida belgilangan tartib va muddatda ko'rib chiqish uchun kiritadi. Jamiyat Ustavi va ichki hujjatlarida qoidalar bir biriga nomuvofiq bo'lsa, Ustav qoidalari ustun hisoblanadi.

«DEHQONOBOD KALJIY ZAVODI» AJ Boshqaruvi a'zoliciga nomzod to'g'risida
MA'LUMOTLAR

nomzodning F.I.Sh.:

T/r	Baholalanadigan mezonlar	Mezon bo'yicha maksimal ball	Nomzodning mavjudligi (ha/yo'q)
I. TALIM			
1	Oliy ma'lumotning mavjudligi (muhandislik, bakalavr yoki magistrlik diplomi)	15	
2	Xorijda oliy ma'lumot olganlik diplomining mavjudligi	10	
3	Joriy yoki o'tgan yilda malaka oshirganlik yoki qayta tayyovgarlik olgan guvohnomasi mavjudligi	5	
II. ISH TAJIRIBASI			
Davlat tashkilotlari, davlat ulushi mavjud bo'jalik jamiyatlarida ma'muriy-boshqaruvi xodim lavozimlaridagi ish tajribasi			
4	bir yilgacha	2	
	1 yildan 3 yilgacha	3	
	3 yildan 5 yilgacha	4	
	5 yildan ko'p	5	
tarmoq korxonada va tashkilotlarda ma'muriy-boshqaruvi xodim lavozimlaridagi ish tajribasi			
5	bir yilgacha	3	
	1 yildan 3 yilgacha	5	
	3 yildan 5 yilgacha	10	
	5 yildan ko'p	15	
Rahbarlik lavozimlarida rais, rais o'rinbosari, menejjer, boshliq, va boshqa lavozimlar) ish tajribasi			
6	bir yilgacha	4	
	1 yildan 3 yilgacha	6	
	3 yildan 5 yilgacha	8	
	5 yildan ko'p	10	
III. BOSHOQ MEZONLAR			
7	Nomzodda davlat yoki tarmoq mukofotlari mavjudligi	5	
8	Nomzodda xalqaro e'tirof etilgan statusining mavjudligi	5	
9	Nomzod tomonidan bo'yicha xorijda tajriba o'tirganligi	5	
10	Vazirlar Mahkamasining (undagi Departamentning) yoki uning negizida tashkil etilgan davlat komissiyasining nomzodlikka ko'rsatish maqsadga muvofiqi to'g'risidagi xatini mavjudligi	15	
11	Boshqa davlat organi yoki uning negizida tashkil etilgan davlat komissiyasining nomzodlikka ko'rsatish maqsadga muvofiqi to'g'risidagi xat va oldingi ish joyidan kamida uchta ijroiy fikrnomasi mavjudligi	10	

Ushbu bilan tasdiqlanmakti. Nomzod sifatida taklif qilinayotgan shaxs:

tegishli munosabatlik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lishi;

ya'ni sohadang kamida 5 yillik ish tajribasi bo'yicha;

o'ziga 3 yil mobaynida yakka tartibda iro organi vaziratsi bjaranangan, kollejal iro organi tarkibiga kirmagan yoki mazkur shaxsning aybi tubaybi ilitsenziya shartlari va talablarining buzilganligi uchun ko'rsatilgan faoliyatni amalga oshirishi uchun ilitsenziyaning amal qilishi tugagan vaqtda yuridik shaxsning ta'sischi bo'linasligi;

shaxsning texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohadida jinoyat uchun yoki boshqaruvi tartibiga qarshi jinoyatlar uchun tugallanmagan sudlanmikka ega bo'lmagan shaxslar;

ya'ni tartibda iro organi vaziratsi bjaranangan, yuridik shaxsning kollejal iro organi tarkibiga kirmagan shaxs, mazkur shaxs bankro deb e'tirof etilgan bo'lsa va e'tirof etilish davridan 2 yil o'tmagan bo'lsa;

kuzatuv kengashining boshqa a'zolari yoki xo'jalik jamiyatining rahbari bilan qarindoshlik va qayin-bo'yinchilik va quda-andachilik munosabatlari bilan bog'lanmagan bo'lsa;

Arizada bayon qilingan barcha ma'lumotlarning, shuningdek ushbu arizaga ilova qilingan hujjatlar va materiallar tarkibidagi ma'lumotlarning haqiqiyliги, ishonchligi va haqiqatga mos bo'lishi;

Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlarning haqiqiy, ishonchli va asosiy mahir yoki yuridik shaxsning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan uning imzosi, yoki Yuridik shaxs rahbari lavozimining ko'rsatilishi va asosiy mahir yoki yuridik shaxsning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan pasport ma'lumotlari.

F.I.Sh., manzili va jismoniy shaxsning yozma yoki elektron imzosi bilan tasdiqlangan pasport ma'lumotlari.

Eslatma:

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanmagan nomzodlarga nisbatan talabgor tomonidan o'ziga ma'lum bo'lgan nomzodga nisbatan O'zbekiston Respublikasi hududida mexnat faoliyatini amalga oshirish uchun ruxsat berish hujjatlarini taqdim etilishini rad etilishiga sabab bo'ladigan ma'lumotlar to'g'risida qo'shimcha xabar beriladi.

25. Jamiyat ijroiya organining yo'nalishlari bo'yicha Jamiyat boshqaruvi a'zolari a'zoliciga nomzodlar bo'yicha qaror Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

26. Tashabbuskorlar nomzodni almashtirish zaruriyatiga olib kelgan holatlarning paydo bo'lishi to'g'risida Kuzatuv kengashini kechiktirmay xabarot qilishlari shart.

27. Agar nomzod bo'yicha uni almashtirish zaruriyatiga olib kelgan holatlar paydo bo'lgan bo'lsa, Kuzatuv kengashi nomzod etib tanlovda avval ishtirok etgan va keyingi eng yaxshi yakuniy bahni to'plagan yoki mazkur Tartibda belgilangan tartibda shunday deb topilgan shaxsni belgilaydi.

28. Agar Aksiyadorlik birlashmalari va kompaniyalarda davlat ulushining samarador foydalanilishi ustidan monitoring qilish bo'yicha Komissiya tomonidan, belgilangan tartibda ushbu shaxsning davlat hamda davlat ulushi mavjud bo'lmagan aksiyadorlik jamiyatlaridagi ulushlari mavjud bo'lgan xo'jalik jamiyatining boshqaruvi va nazorat organida olib borgan faoliyati natijasida qoniqarsiz deb topilgan bo'lsa, Kuzatuv kengashi nomzodni rad qilish huquqiga ega.

IV. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

29. Ushbu Tartib Jamiyat Kuzatuv kengashining qarori bilan tasdiqlanganidan so'ng kuchga kiradi.

30. Mazkur Tartibni tasdiqlash bo'yicha Kuzatuv kengashining qarori majlisda ishtirok etgan Kuzatuv kengash a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan yoki Kuzatuv kengashining majlisi sirtidan o'tkazilgan taqdirda kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

31. Mazkur Tartibga qonun hujjatlariga o'zgartirish kiritilishi, Jamiyatning Ustavi, ichki hujjatlariga o'zgartirish va/yoki qo'shimcha kiritilishi, Jamiyat tashkiliy tuzilmasining o'zgarishi munosabati bilan va boshqa holatlarda o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

32. Mazkur Tartibga o'zgartirish va qo'shimchalar Jamiyatning Kuzatuv kengashi qarori bilan tasdiqlanganidan so'ng kuchga kiradi.

Mazkur Tartibga o'zgartirish va qo'shimchalarni tasdiqlash bo'yicha Kuzatuv kengashining qarori majlisda ishtirok etgan Kuzatuv kengash a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan yoki kuzatuv kengashining majlisi sirtidan o'tkazilgan taqdirda kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

33. Agar mazkur Tartibning alohida bandlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga va/yoki Jamiyat Ustaviga zid bo'lsa, bu moddalar o'z kuchini yo'qotadi va mazkur Tartibga tegishli o'zgartirishlar kiritilgunga qadar bu moddalar bilan tartibga solinuvchi masalalar qismida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi me'yorlari va/yoki Jamiyat Ustaviga amal qilinishi lozim.

34. Mazkur Tartib talablarini buzeanlikda aybdor shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

35. Jamiyatning Kuzatuv kengashi mazkur Tartib talablariga rioya qilinishi ustidan nazorat qiladi.